

Мамажонов Мо'минjon,
Andijon davlat universiteti "Geografiya" kafedrası
professori, geografiya fanlari nomzodi

MILLIY VA MADANIY IJTIMOYILASHUV FENOMENI: NAZARIY KONTEKSTUAL TAHLIL

UO'K: 316.614

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_7_2](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_7_2)

MAMAJONOV M. MILLIY VA MADANIY IJTIMOYILASHUV FENOMENI: NAZARIY KONTEKSTUAL TAHLIL

Ushbu ilmiy maqolada milliy va madaniy ijtimoiylashuv fenomeni oliy ta'lim muhitida tahlil qilinib, uning shaxsning milliy identifikatsiyasi va madaniy merosni o'zlashtirish jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoniga milliy qadriyatlarni integratsiya qilish, talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatlarga jalb etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Shuningdek, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va innovatsion metodik yondashuvlarni joriy etish orqali milliy madaniyatni saqlab qolish va mustahkamlashning samarali yo'llari tavsiya etilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: milliy ijtimoiylashuv, madaniy identifikatsiya, oliy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, globalizatsiya, o'lkashunoslik materiallari.

МАМАЖАНОВ М. ФЕНОМЕН НАЦИОНАЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

В данной научной статье феномен национальной и культурной социализации рассматривается в контексте высшего образования, с акцентом на его значении в процессе формирования национальной идентичности личности и усвоения культурного наследия. Результаты исследования показывают, что интеграция национальных ценностей в образовательный процесс, привлечение студентов к социально-культурной деятельности, а также использование современных педагогических технологий являются важнейшими факторами развития национальной и культурной социализации. Кроме того, рекомендуется использовать краеведческий материал, развивать межкультурный диалог и внедрять инновационные методические подходы как эффективные средства сохранения и укрепления национальной культуры.

Основные слова и понятия: национальная социализация, культурная идентичность, высшее образование, педагогические инновации, глобализация, краеведческий материал.

MAMAJONOV M. THE PHENOMENON OF NATIONAL AND CULTURAL SOCIALIZATION: THEORETICAL CONTEXTUAL ANALYSIS

This scientific article analyzes the phenomenon of national and cultural socialization within the context of higher education, highlighting its importance in the processes of personal national identification and assimilation of cultural heritage. The research results show that integrating national values into the educational process, involving students in socio-cultural activities, and applying modern pedagogical technologies are key factors in enhancing national and cultural socialization. Furthermore, the use of local history materials, the development of intercultural communication, and the implementation of innovative methodological approaches are recommended as effective ways to preserve and strengthen national culture.

Key words and concepts: national socialization, cultural identity, higher education, pedagogical innovations, globalization, local history materials.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu jarayon orqali inson o'zining ijtimoiy, madaniy va milliy mohiyatini anglaydi, jamiyatning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini o'zlashtiradi. Ayniqsa, milliy va madaniy ijtimoiylashuv fenomeni bugungi globallashuv sharoitida dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki madaniy xilma-xillik, axborot oqimining keskin oshishi va jamiyatning dinamik rivojlanishi natijasida yoshlarning milliy o'ziga xosligi, madaniy merosi va ijtimoiy identifikatsiyasi muammoli masalalardan biriga aylanmoqda.

Oliy ta'lim tizimi milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Talabalar o'z hayotining eng faol va shakllanish davrini aynan oliy ta'lim muhitida o'tkazadilar, bu esa ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, milliy va madaniy identifikatsiyasining barqaror shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida yoshlarning milliy identifikatsiyasi va madaniy qadriyatlarga sodiqligi tobora zaiflashib borayotganligi pedagogik jamoatchilik oldida jiddiy muammo sifatida turibdi. Xalqaro madaniy oqimlarning kuchayishi, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ining ta'siri ostida yosh avlod orasida madaniy begonalashuv, g'arbga moyillik va milliy qadriyatlar bilan ziddiyatli munosabat shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki shaxsning ma'naviy

shakllanishini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institut sifatida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishi lozim.

Talabalarning aynan oliy ta'lim muhitida o'z milliy o'zligiga ega bo'lishi, madaniy merosni anglash va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyor bo'lishi ularning shaxsiy va kasbiy rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo hozirgi kunda bu jarayonni metodik va amaliy jihatdan takomillashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar, o'lkashunoslik materiallari va madaniyatlararo muloqot tamoyillaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv masalasi pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va falsafa fanlarining kesishgan nuqtasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, pedagogik yondashuvda bu jarayon shaxsning ijtimoiy va madaniy muhitga moslashuvi, jamiyatda faol ishtirok etish, milliy qadriyatlarni anglash va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi bosqichlari – birlamchi (oilaviy), ikkilamchi (ta'lim tizimi orqali) va professional ijtimoiylashuv – ushbu fenomenning murakkab va bosqichli xarakterini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiylashuvning mazmuni Aristotel, Konfutsiy, I. Kant, G. Hegel, K. Marks kabi mutafakkirlar falsafiy qarashlarida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim tizimida bu jarayonni pedagogik jihatdan ta'minlash bo'yicha S.Y. Akbarov, N.K. Daminova, Sh.V. Ismoilova, I.N. Naimov, R.I. Zinurova,

G.E. Viktorovna kabi tadqiqotchilar tomonidan muayyan yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy izlanishlarda milliy va madaniy ijtimoiylashuvda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, loyiha asosidagi o'qitish, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash kabi yondashuvlarning dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim muhitida bu jarayon talabalar shaxsiyatining shakllanishi va ularning milliy o'zligini anglashida muhim omil sifatida baholanmoqda.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Milliy va madaniy ijtimoiylashuv fenomeni oliy ta'lim muhitida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, bu jarayonning nazariy, pedagogik va metodik asoslari tizimlashtirilgan. Xususan, maqolada madaniy uzluksizlik, madaniyatlararo muloqot, innovatsion yondashuv va faollik tamoyillari asosida milliy ijtimoiylashuvni ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. O'lkashunoslik materiallarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi orqali milliy identifikatsiyani shakllantirishning samarali yo'llari asoslab berilgan. Empirik tadqiqotlar asosida talabalarning madaniy faolligini oshirishga doir strategik tavsiyalar ishlab chiqilganligi maqolaning muhim ilmiy yangiligidir.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta'lim muhitida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda pedagogik jarayonda mazkur fenomenni samarali tashkil etishning ilmiy-metodik yo'llarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti. Oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy, madaniy va ijtimoiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-pedagogik jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Kompleks pedagogik tadqiqot metodlari tanlangan bo'lib, ular milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Jumladan, **nazariy-tahliliy usul** orqali mavzuga oid ilmiy manbalar va ilg'or pedagogik qarashlar o'rganilgan; **empirik usullar** – so'rovnoma, suhbat, kuzatuv va eksperimental tadqiqotlar orqali oliy ta'lim muhitidagi amaliy holatlar tahlil qilingan; **kontent-tahlil** metodi yordamida talabalarning milliy identifikatsiyasi, madaniy qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy faolligi haqidagi

ma'lumotlar tizimlashtirilgan. Ushbu usullar milliy va madaniy ijtimoiylashuvning zamonaviy pedagogik modelini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Asosiy qism.

Hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, globallashtirish natijasida milliy qadriyatlarning zaiflashuvi va madaniy g'oyalar almashinuvinin tezlashishi kuzatilmogda. Bu esa yoshlarning madaniy ongida ba'zan an'anaviy milliy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlash bo'yicha aniq ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yoshlarning ishtirokini faollashtirish, ularni madaniy meros va milliy an'analarga jalb qilish borasida tizimli yondashuv talab etiladi.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv tushunchasi pedagogik, sotsiologik, falsafiy hamda psixologik nuqtai nazardan keng qamrovli tadqiqot obyektidir. Mazkur fenomenni o'rganish jarayonida ijtimoiylashuv nazariyalari, madaniyatlararo muloqot, etnopedagogika, ta'lim sotsiologiyasi kabi ilmiy yo'nalishlar asosida yondashiladi¹. Milliy ijtimoiylashuv – bu shaxsning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'zlashtirishi, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi jarayoni bo'lsa, madaniy ijtimoiylashuv – bu madaniy muhitning shaxsga ta'siri, uning jamiyatdagi madaniy ko'nikmalarni shakllantirish, universal va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish jarayonidir.

Oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvning ta'minlanishi nafaqat shaxsiy taraqqiyot uchun, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham zarurdir. Talabalarning o'z milliy o'ziga xosligini anglashlari, milliy madaniyat va an'analarga asoslangan holda ijtimoiy faollik ko'rsatishlari ta'limning strategik maqsadlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limda milliy va madaniy ijtimoiylashuvni samarali amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida milliy meros, o'lkashunoslik materiallari va madaniy pedagogik yondashuvlardan keng foydalanish lozim.

¹ Akbarov S.Y. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining psixologik tavsifi. Pedagogik mahorat: 2022. – B. 18.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuvning samarali kechishi uchun oliy ta'lim muassasalari quyidagi tamoyillarga asoslanishi muhim:

1. Madaniy uzluksizlik tamoyili – bu talabalarning tarixiy va madaniy xotirasini shakllantirish, milliy an'analar va qadriyatlarni uzviy o'rganish imkoniyatini yaratish.

2. Madaniyatlararo muloqot tamoyili – bu yoshlarning turli madaniyatlar bilan tanishishi, tolerantlik va madaniyatlararo munosabatlarni rivojlantirish jarayonidir.

3. Faollik va ishtirok tamoyili – talabalarni ijtimoiy-madaniy hayotga jalb qilish, ularning milliy va madaniy faoliyatlarda ishtirok etishlarini rag'batlantirish.

4. Innovatsion-pedagogik yondashuv tamoyili – milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish.

Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlashda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda. O'lkashunoslik nafaqat tarixiy-geografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, balki unda milliy o'ziga xoslik, madaniy meros va urf-odatlar aks ettiriladi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirishda o'lkashunoslik materiallarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish muhim metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlash bo'yicha ilg'or pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, talabalarning milliy madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirishini rag'batlantirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, milliy pedagogika va madaniy integratsiya yo'nalishida innovatsion metodlar ishlab chiqish bugungi ta'lim siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Ushbu jarayon insonning biologik mavjudot sifatidagi holatidan ijtimoiy ong va madaniy

identifikatsiyaga ega bo'lgan to'laqonli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi¹. Ijtimoiylashuv jarayoni faqatgina oilaviy tarbiya yoki ta'lim tizimi orqali emas, balki butun jamiyatning sotsial-madaniy muhiti, iqtisodiy va siyosiy omillari orqali ham shakllanadi².

Pedagogika fanida ijtimoiylashuv jarayoni shaxs rivojlanishining markaziy omili sifatida qaraladi. Pedagogik yondashuvga ko'ra, ijtimoiylashuv bu – ta'lim va tarbiya jarayoni orqali insonning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ularni mustaqil qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Pedagogik nuqtai nazardan ijtimoiylashuv jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Birlamchi ijtimoiylashuv – bola oilaviy muhitda dastlabki ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiradi, asosiy ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga ega bo'ladi.

2. Ikkinchi darajali ijtimoiylashuv – ta'lim muassasalari, madaniy va ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. Bu bosqichda shaxs o'zining individual dunyoqarashini shakllantiradi va ijtimoiy-madaniy identifikatsiya jarayonidan o'tadi.

3. Professional ijtimoiylashuv – insonning kasbiy faoliyati doirasida jamiyatdagi rolini anglash va o'z kasbiga mos ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonidir.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U insonning milliy identifikatsiyasini shakllantirish, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, globallashuv sharoitida o'z milliy o'ziga xosligini yo'qotmaslik kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuvning asosiy mezonlari va komponentlari pedagogik jihatdan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu jarayon quyidagi mezonlar asosida shakllanadi:

1. Milliy identifikatsiya – shaxs o'z milliy mansubligini anglaydi, milliy g'urur va o'zini anglash jarayonidan o'tadi.

2. Madaniy merosni o'zlashtirish – madaniy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va

¹ Daminova N.K. Ta'lim tashkilotlarida ijtimoiylashuv jarayonlarini boshqarish ierarxiyasi. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – T, 1-fevral, 2023-yil. – 44-51-betlar.

² Ismoilova Sh.V. Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. International scientific and practical conference. – Toshkent, 23-may, 2024-yil. – 266-271-betlar.

tarixiy tajribalarni o'rganish orqali milliy madaniyatni idrok etish.

3. Ijtimoiy moslashuv – jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarga moslashish hamda ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish.

4. Kommunikativ kompetensiya – milliy va madaniy muhitda samarali muloqot qila olish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish.

5. Axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish – shaxs o'z hayotida milliy va madaniy qadriyatlarni qo'llay olish, ularni boshqa jamiyat vakillariga yetkazish.

Pedagogik jarayonda milliy va madaniy ijtimoiylashuvning roli nihoyatda muhim. Ta'lim jarayoni shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi asosiy institutlardan biri sifatida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishi lozim. Milliy va madaniy ijtimoiylashuv pedagogik jarayonning quyidagi jihatlarida aks etadi:

1. Ta'lim mazmunida milliy va madaniy komponentlarning o'ri – o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar, madaniy meros, tarixiy an'analar va milliy o'ziga xoslik aks etishi kerak. Bu yoshlarning milliy madaniyatga bo'lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

2. O'quv jarayonida interaktiv yondashuvlarni qo'llash – talabalarni madaniyatlararo muhitda ishlashga tayyorlash, ularning milliy va madaniy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun faol o'quv metodlaridan foydalanish.

3. Ta'lim muassasalarida milliy madaniy muhitni shakllantirish – talabalar milliy madaniyatni o'zlashtirishi uchun ularning faol ishtirokida milliy bayramlar, madaniy tadbirlar va an'anaviy sanalarni nishonlash tizimli yo'lga qo'yilishi lozim.

4. O'lkashunoslik materiallari asosida ta'lim jarayonini boyitish – talabalarining o'z mintaqasi, tili, madaniyati, tarixiy merosi bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiallari orqali milliy va madaniy ijtimoiylashuvini rivojlantirish.

5. Pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish – pedagoglar milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, ular milliy va madaniy tarbiyani

shakllantirish bo'yicha maxsus metodik bilimlarga ega bo'lishi lozim¹.

Shunday qilib, milliy va madaniy ijtimoiylashuv pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida insonning shaxsiy va kasbiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim tizimi yoshlarni milliy va madaniy jihatdan ijtimoiylashuviga yo'naltiruvchi asosiy institut bo'lib, bu jarayonda ta'lim dasturlarining mazmuni, pedagogik metodlar, madaniy va ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish kelajak avlodning milliy o'ziga xosligini saqlab qolgan holda global muhitda moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv insoniyatining tarixiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan jarayonlardan biri bo'lib, uning shakllanishi jamiyatning rivojlanish bosqichlari, falsafiy ta'limotlar, pedagogik qarashlar va global o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Ijtimoiylashuv jarayoni qadimdan insonning shaxs sifatida rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan². Ayniqsa, milliy va madaniy ijtimoiylashuv shaxsning o'z millatiga mansubligini anglash, ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish va jamiyatda muayyan ijtimoiy rolni egallashini ta'minlovchi asosiy vositadir³.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lib, bu jarayon qadimgi davrlardan buyon falsafiy va pedagogik jihatdan turlicha talqin qilingan. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasida ijtimoiylashuv tushunchasi insonning jamiyatga moslashuvi, mehnat, axloqiy qadriyatlar va bilimlarni avloddan-avlodga o'tkazish jarayoni sifatida ko'rilgan. Masalan, Aristotel shaxsni «ijtimoiy mavjudot» sifatida tasniflab, inson faqat jamiyat muhitida o'zining haqiqiy mohiyatini namoyon etishini ta'kidlagan. Xitoy faylasufi Konfutsiy esa ijtimoiylashuvning axloqiy va madaniy komponentlariga urg'u berib, jamiyatdagi insonlar o'zaro hurmat, an'analarga sodiqlik va axloqiy mukammallik orqali ijtimoiy moslashuvga erishishi lozimligini ilgari surgan.

¹ Naimov I.N., Qahhorova G.B., Azizov A.A. Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Iqro jurnali: 2023. – B. 69-72.

² Зинурова Р.И. Этническая социализация молодежи в условиях современного общества. дисс. социологических наук. – Москва.: 2005. – 38 с.

³ Голуб Е.В. Развитие этнической идентичности как фактор социализации подростков полиэтнического региона: дисс. пед. наук. – Оренбург.: 2011. – 52 с.

O'rta asrlarda ijtimoiylashuv jarayoni diniy ta'limotlar orqali talqin qilingan. Xususan, Islom madaniyatida ijtimoiylashuv insonning Alloh tomonidan belgilangan qadriyatlarga asoslanib, ijtimoiy hayotda adolat va axloqiy yetuklikka intilish jarayoni sifatida tushunilgan. O'rta asr Yevropa falsafasida esa shaxsning jamiyatga moslashuvi cherkov ta'limoti doirasida talqin qilinib, insonning asosiy vazifasi jamiyat qoidalariga bo'ysunish va ilohiy qonunlarni bajarishdan iborat bo'lgan.

Yangi davr falsafasida esa ijtimoiylashuv masalasi ilmiy nuqtai nazardan o'rganila boshlandi. Nemis faylasufi I. Kant ijtimoiylashuvni shaxsiy erkinlik va ijtimoiy majburiyatlarning o'rtasidagi uyg'unlik sifatida baholagan bo'lsa, G. Hegel jamiyatni inson ongi shakllanishining muhim vositasi deb bilgan. XIX asrda esa Karl Marks ijtimoiylashuv jarayonini ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'lab, shaxs ijtimoiylashuvi iqtisodiy va sinfiy muhit ta'sirida shakllanishini ta'kidlagan.

Turli pedagogik ta'limotlarda milliy va madaniy ijtimoiylashuv

Pedagogik fikr tarixida ijtimoiylashuvning o'rni doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi yunon pedagoglari Platon va Aristotel ijtimoiylashuvni ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismi deb hisoblab, inson ma'naviy kamolotga jamiyat orqali erishishini ta'kidlagan. O'rta asr Islom pedagogikasida esa milliy va madaniy ijtimoiylashuv Qur'oni Karim va hadislarga asoslangan holda insonning axloqiy kamoloti bilan bog'langan.

Yangi davr pedagogikasida esa ijtimoiylashuvning ilmiy asoslari shakllana boshladi. J.J. Russo¹ ta'lim shaxsiy erkinlikni rivojlantirishi kerakligini ilgari surgan bo'lsa, J.H. Pestalozzi² ijtimoiy tarbiya jarayonida mehr-oqibat va insonparvarlikka asoslanish zarurligini ta'kidlagan. XX asr pedagogikasida esa J. Dyui³ ijtimoiylashuvni demokratik jamiyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib, ta'lim tizimi orqali yosh avlodni jamiyat hayotiga tayyorlash g'oyasini ilgari surgan.

Sovet pedagogikasida esa milliy va madaniy ijtimoiylashuv davlat mafkurasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim jarayoni yoshlarni kommu-

nistik g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Mustaqillikdan keyingi davrda esa O'zbekiston pedagogikasida milliy va madaniy ijtimoiylashuvning ahamiyati yangicha yondashuvlar asosida talqin qilinmoqda. Hozirgi kunda milliy tarbiya, ma'naviy meros, etnopedagogika va madaniy integratsiya masalalari zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Globalizatsiya sharoitida milliy madaniyat va ijtimoiylashuv muammolari

XXI asr globalizatsiya jarayonlari bilan ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniyatlararo integratsiyaning jadallashuvi va xalqaro kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida milliy va madaniy ijtimoiylashuv yangi muammolar va chaqiriqlarga duch kelmoqda. Bugungi kunda quyidagi global omillar milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Madaniy gibrizatsiya – turli madaniyatlarining bir-biriga aralashuvi natijasida milliy madaniy qadriyatlarning yo'qolish xavfi.

2. Axborot texnologiyalarining ta'siri – yoshlarning globallashtirilgan madaniyatga moyilligi, milliy qadriyatlar va urf-odatlardan uzoqlashish tendensiyasi.

3. Migratsiya va kosmopolitizm – turli millat va madaniyat vakillarining bir hududda yashashi natijasida milliy o'ziga xoslikni yo'qotish ehtimoli.

4. G'arb madaniyatining dominantligi – globallashtirilgan madaniyatlar ajralmas qismi deb hisoblab, inson ma'naviy kamolotga jamiyat orqali erishishini ta'kidlagan. O'rta asr Islom pedagogikasida esa milliy va madaniy ijtimoiylashuv Qur'oni Karim va hadislarga asoslangan holda insonning axloqiy kamoloti bilan bog'langan.

Shunday sharoitda milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini pedagogik jihatdan takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, ta'lim tizimida milliy madaniyatni asrash va rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim sanaladi:

• **Madaniy identifikatsiya va milliy g'ururni rivojlantirish** – yoshlarni o'z milliy merosiga hurmat bilan qarashga o'rgatish.

• **Ta'limda madaniyatlararo dialogni rivojlantirish** – turli madaniy muhitlarga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish.

• **Axborot texnologiyalaridan ongli foydalanish** – milliy madaniyatni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash.

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Jean-Jacques_Rousseau

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Johann_Pestalozzi

³ https://en.wikipedia.org/wiki/John_Dewey

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining tarixiy va falsafiy tahlili ushbu jarayonning doimiy rivojlanib kelayotganligini va zamonaviy pedagogik jarayonda uning ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bugungi global sharoitda milliy madaniyatni asrash va yoshlarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirish pedagogik strategiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda¹.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy rolini belgilash, madaniy merosni o'zlashtirish va milliy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayoni bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalari esa bu jarayonning asosiy institutlaridan biri sifatida yoshlarning shaxsiy, ma'naviy va kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muhiti nafaqat bilim olish maskani, balki talabalarining ijtimoiylashuvi, milliy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi muhit sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun turli pedagogik omillar, metodik yondashuvlar va mahalliy madaniy materiallardan foydalanish talab etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlovchi pedagogik omillar orasida ta'lim mazmunining milliy va madaniy yo'nalishga ega bo'lishi muhim sanaladi. O'quv dasturlarida milliy madaniyat, tarix, urf-odatlar va an'analar bilan bog'liq mavzular yetarlicha aks ettirilishi lozim. Bu esa talabalarining milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga, ularning o'z milliy madaniyatiga hurmat bilan qarashiga va milliy qadriyatlarni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim dargohlaridagi akademik muhit va madaniy atmosfera ham milliy va madaniy ijtimoiylashuvga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talabalarining o'zaro muloqot qilish jarayoni, madaniy tadbirlar, milliy festivallar va ijodiy loyihalar bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuvni samarali ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan ham keng foydalanish lozim. Raqamli ta'lim muhiti, elektron kutubxonalar, virtual muzeylar va interaktiv ta'lim resurs-

lari milliy va madaniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning bu jarayondagi o'rni ham beqiyosdir. O'qituvchilarning shaxsiy namunalari, ularning milliy madaniyatga oid chuqur bilimga ega bo'lishi va innovatsion yondashuvlarni qo'llashi talabalarining milliy ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi.

Talabalarining milliy va madaniy ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun samarali metodik yondashuvlardan foydalanish zarur. Integrativ ta'lim yondashuvi orqali milliy va madaniy qadriyatlar turli fanlarga uyg'unlashtirilishi mumkin. Masalan, tarix, falsafa, pedagogika, san'atshunoslik kabi fanlarda milliy madaniyat va an'analarni yoritish orqali talabalar milliy identifikatsiyaga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, loyiha asosida o'qitish metodidan foydalanish orqali talabalar mustaqil ravishda milliy madaniyat va an'analarga oid tadqiqot olib borib, o'zlari o'rganayotgan mavzular bo'yicha ilmiy ishlanmalar tayyorlashlari mumkin. Bu esa ularning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Globalizatsiya sharoitida madaniyatlararo ta'lim metodikasining ahamiyati oshib bormoqda. Yoshlar turli madaniyatlar bilan tanishtirilishi, milliy va madaniy xilma-xillikni tushunishi va ularga hurmat bilan qarashi muhim ahamiyatga ega. Virtual va raqamli texnologiyalardan foydalanish esa milliy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish maqsadida samarali vosita bo'lib, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, virtual o'quv materiallari orqali talabalar milliy madaniyat haqida chuqurroq bilim olishlari mumkin. Shuningdek, tashqi muhit bilan hamkorlik ham milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Talabalarni milliy va madaniy tashkilotlar, muzeylar, ijodiy markazlar bilan tanishtirish, ularning milliy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha loyihalarda ishtirok etishlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirish jarayonida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. O'lkashunoslik mahalliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan muhim vositalardan biri bo'lib, talabalarni o'z yurtining tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi. O'lkashunoslik

¹ Zavershinskiy K.F., Koryushkin A.I. Political Socialization in a Changing Society: A Crisis of Value Orientations or Asynchronization of National Memories?. Changing societies & Personalities: 2022. – P. 35-55.

materiallarini ta'lim jarayoniga kiritish orqali talabalar o'z hududlarining tarixiy va madaniy jihatlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa milliy g'ururni oshirish, o'z tarixini anglash va milliy qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi.

O'lkashunoslik materiallari asosida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirish uchun bir qator metodlardan foydalanish mumkin. Avvalo, mahalliy tarix va madaniyatni o'rganish talabalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ularning mintaqaviy tarix, mahalliy madaniy meros va milliy qadriyatlar haqida keng bilimga ega bo'lishlari ta'minlanadi. Shuningdek, tarixiy va madaniy ekskursiyalar tashkil etish orqali talabalar milliy madaniyat obidalari, tarixiy maskanlar va muzeylarga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning milliy o'ziga xoslikni anglashiga yordam beradi.

Mahalliy madaniy an'analarga oid tadbirlarni o'tkazish ham milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy bayramlar, folklor festivallari, an'anaviy san'at turlariga bag'ishlangan mahorat darslari talabalarni milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy mualliflarning ilmiy va badiiy asarlarini o'rganish esa milliy adabiyot va san'atni chuqur o'rganish orqali talabalarni milliy g'oya va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunday yondashuv orqali yoshlarning milliy identifikatsiyasi mustahkamlanadi va ular milliy madaniyatni chuqur o'zlashtirgan holda jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, pedagogik oliy ta'lim muhitida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni samarali ta'minlash uchun ta'lim jarayoniga milliy va madaniy qadriyatlarni integratsiya qilish, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish va o'lkashunoslik materiallarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalari milliy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirishda hal qiluvchi institutlardan biri bo'lib, yoshlarni milliy o'ziga xoslikni anglash va uni saqlashga yo'naltirish orqali milliy va madaniy ijtimoiylashuvni jadallashtirishga xizmat qilishi lozim. Bu esa kelajak avlodning milliy o'zligini yo'qotmasdan, global dunyoda moslashuvchanlik qobiliyatini oshirishiga zamin yaratadi.


Milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni oliy ta'lim tizimida talabalarining shaxsiy va kas-

biy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Ushbu jarayon yoshlarning milliy identifikatsiyasi, madaniy merosni anglash darajasi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish ko'nikmalarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda globalizatsiya sharoitida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonining holatini chuqur tahlil qilish hamda empirik tadqiqot natijalariga asoslangan ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim talabalari orasida milliy va madaniy ijtimoiylashuv darajasini o'rganish uchun turli empirik tadqiqotlar o'tkazilib, talabalarining milliy o'ziga xoslikni anglash darajasi, madaniy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy moslashuv qobiliyati va ta'lim muhitining bu jarayonga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat talabalar milliy madaniyat va an'analarni hurmat qilsa-da, ular orasida global madaniyatning ta'siri sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va xalqaro kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi milliy va madaniy identifikatsiya jarayoniga turlicha ta'sir o'tkazmoqda.

O'tkazilgan empirik tadqiqot metodlari orqali milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Tadqiqotlarda so'rovnomalar, intervyyular, kuzatuv usullari, eksperimental tadqiqotlar va kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarining milliy madaniyatni anglash darajasi ularning oilaviy muhitiga, maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda olgan bilimlariga, shuningdek, oliy ta'lim tizimidagi madaniy va tarbiyaviy tadbirlarga jalb etilishiga bog'liqdir.

Kuzatuvlar shuni tasdiqladiki, oliy ta'lim muassasalarida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ayrim talabalar orasida milliy madaniyat va qadriyatlarga yetarlicha e'tibor bermaslik holatlari kuzatiladi. Ayniqsa, xorijiy madaniy ta'sirlarning ortib borishi, turli submadaniyatlarning shakllanishi milliy o'ziga xoslikni anglash jarayoniga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, ushbu jarayonni pedagogik nuqtai nazardan yanada rivojlantirish hamda talabalarining milliy va madaniy ijtimoiy-

1-rasm. Oliy ta'lim muhitida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirish strategiyalari¹.

lashuvini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Olingan natijalarga asoslanib, quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlash uchun o'quv jarayoniga milliy madaniyatga oid fanlarni integratsiya qilish zarur. Talabalar faqat umumiy ta'lim fanlari orqali emas, balki madaniy-tarixiy merosga oid maxsus kurslar orqali ham milliy qadriyatlar bilan tanishtirilishi lozim. Ikkinchidan, talabalarning ijtimoiy va madaniy faolligini oshirish uchun universitetlarda milliy madaniyat va an'analarga bag'ishlangan ilmiy-ma'rifiy tadbirlar, xalqaro madaniyat haftaliklari, ijodiy uchrashuvlar va madaniy almashinuv dasturlarini yanada kengroq joriy etish lozim.

Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish milliy va madaniy ijtimoiylashuvni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar uchun milliy madaniyatga oid elektron platformalar, virtual ekskursiyalar, raqamli madaniy resurslar ishlab chiqish, tarixiy va madaniy kontent yaratish milliy madaniyatni

targ'ib qilishning samarali yo'llaridan biri bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, pedagogik faoliyatni takomillashtirish orqali milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Pedagog kadrlarni tayyorlashda milliy va madaniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va bu borada zamonaviy metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Beshinchidan, o'lkashunoslik materiallaridan samarali foydalanish milliy va madaniy ijtimoiylashuvni kuchaytirishning eng muhim omillaridan biridir. Talabalarni o'z hududining tarixiy obidolari, madaniy merosi va an'anaviy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish, ularni mahalliy tarix va madaniyatga oid tadqiqotlarga jalb qilish milliy identifikatsiya jarayonini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni tizimli yondashuv orqali rivojlantirilishi lozim. Ta'lim muhitida milliy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash, innovatsion metodlarni joriy etish, pedagoglarning bu jarayondagi rolini oshirish va talabalarni faol ijtimoiy hayotga jalb qilish mil-

¹ Sxema maqola muallifi tomonidan tuzilgan.

liy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida milliy madaniyatga asoslangan ta'lim modelini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalar va pedagogik metodlarni qo'llash orqali milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda talabalarni globallashtirish sharoitida ijtimoiy moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

Kelajakda milliy va madaniy ijtimoiylashuvni yanada chuqurroq o'rganish, uning pedagogik jarayondagi o'rnini mustahkamlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida milliy madaniyatni targ'ib qilish bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim vazifa sifatida qaraladi. Bu esa nafaqat oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga, balki umuman jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

1. Milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi, milliy o'ziga xoslikni anglash va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonlarining murakkab tizimidan iborat bo'lib, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni tizimli ravishda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini rivojlantirish yoshlarning milliy identifikatsiyasini mustahkamlash, madaniy merosni anglash va milliy qadriyatlarga asoslangan jamiyat qurishga xizmat qiladi.

2. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muhitida milliy va madaniy ijtimoiylashuvning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogik yondashuvlar, ta'lim muassasalarida yaratilgan madaniy muhit, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi va talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga jalb etish mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim ilmiy xulosalardan biri shuki, oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni maqsadli va tizimli yondashuv talab qiladi. So'rovnomalar va kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat talabalar milliy madaniyat va an'analarga qiziqish bildirsalar-da, amaliy jarayonda ularni o'z hayotlarida qo'llash dara-

jasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida milliy va madaniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarining yanada takomillashtirilishini talab qiladi.

4. Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, globalizatsiya ta'sirida milliy madaniyat va an'analarning yoshlar ongidagi o'rnini biroz susaymoqda. Talabalar orasida ommaviy madaniyat, global axborot manbalari va g'arbiy madaniy qadriyatlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu holat milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini yanada mustahkamlash va talabalarining milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

5. Milliy va madaniy ijtimoiylashuvni rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarni o'z ichiga olgan maxsus kurslarni kiritish zarur. Ushbu kurslarda milliy madaniyat, tarix, urf-odatlar va an'analarga oid interaktiv darslar, amaliy seminarlar va tadqiqot loyihalarini yo'lga qo'yish talab qilinadi. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida milliy madaniyat bilan bog'liq tadbirlarni kengroq tashkil etish zarur. Jumladan, milliy festival va an'anaviy bayramlarni muntazam ravishda o'tkazish, talabalarni madaniy-tarixiy ekspeditsiyalarga jalb qilish va ularning milliy madaniyatni o'rganish borasidagi tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash kerak. Uchinchidan, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali milliy madaniyat va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish zarur. Virtual muzeylar, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar va raqamli madaniy resurslarni yaratish orqali talabalarni milliy madaniyat bilan yanada chuqurroq tanishtirish mumkin. To'rtinchidan, o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularning milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash muhimdir. Shu munosabat bilan, pedagogik faoliyatda milliy madaniyatga oid innovatsion metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati ortib bormoqda.

6. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Talabalar o'z mintaqasining tarixi, madaniy obidalari va an'anaviy qadriyatlarini chuqur o'rganish

orqali milliy identifikatsiyasini mustahkamlashlari mumkin. Shuning uchun, oliy ta'lim tizimida o'lkashunoslik fanlarini rivojlantirish va talabalarni mahalliy tarixiy tadqiqotlarga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi.

7. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlar sifatida bir necha muhim sohalarni belgilash mumkin. Birinchidan, milliy va madaniy ijtimoiylashuvni zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish mexanizmlarini chuqur o'rganish lozim. Xususan, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish orqali milliy madaniyatni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchidan, turli madaniy va ijtimoiy guruhlar orasida milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayonini qiyosiy o'rganish va ta'lim muassasalarining bu boradagi tajribalarini tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Uchinchidan, globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini empirik jihatdan o'rganish kela-

jak ilmiy tadqiqotlar uchun muhim mavzulardan biri bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, xalqaro ta'lim tizimidagi milliy va madaniy ijtimoiylashuv tajribalarini o'rganish va bu borada O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mos keluvchi strategiyalarni ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

8. Umuman olganda, milliy va madaniy ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, milliy identifikatsiyasini mustahkamlash va madaniy merosni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun pedagogik ta'lim tizimida tizimli va innovatsion yondashuvlar zarur. Oliy ta'lim tizimida milliy va madaniy ijtimoiylashuvni mustahkamlash bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish kelajak avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, madaniy ongli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va yangi pedagogik model va texnologiyalarni ishlab chiqish milliy ta'lim tizimining muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov S.Y. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining psixologik tavsifi. - Pedagogik mahorat: 2022. – B. 18.
2. Daminova N.K. Ta'lim tashkilotlarida ijtimoiylashuv jarayonlarini boshqarish ierarxiyasi. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – T, 1-fevral, 2023-yil. – 44-51-betlar.
3. Ismoilova Sh.V. Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. // International scientific and practical conference. - Toshkent, 23-may, 2024-yil. – 266-271-betlar.
4. Naimov I.N., Qahhorova G.B., Azizov A.A. Shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. // Iqro jurnali: 2023. – B. 69-72.
5. Зинурова Р.И. Этническая социализация молодежи в условиях современного общества. дисс. социологических. наук. – Москва.: 2005. – 38 с.
6. Голуб Е.В. Развитие этнической идентичности как фактор социализации подростков полиэтнического региона: дисс. пед. наук. – Оренбург: 2011. – 52 с.
7. Zavershinskiy K.F., Koryushkin A.I. Political Socialization in a Changing Society: A Crisis of Value Orientations or Asynchronization of National Memories? Changing societies & Personalities: 2022. – P. 35-55.